


## ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2023- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 953,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 99,6 % ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 15,1 % ni yoki 598,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 355,6 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 84,9 %i o'zlashtirildi.



### Markazlashgan investitsiyalar

### Moliyalashtirish manbalari

### Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da

Respublika byudjeti

6,1 %

69,9 m.

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

0,8 %

74,0 %

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

0,0 %

0,0 %

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar

8,2 %

2,6 m.

### Markazlashmagan investitsiyalar

### Moliyalashtirish manbalari

### Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da

Korxona mablag'i

19,9 %

74,1 %

Aholi mablag'lari

22,3 %

100,5 %

Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar

40,1 %

146,1 %

Shu jumladan: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

21,4%

104,0%

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzlar

2,6 %

27,4 %

2023- yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 786,7 mlrd so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,9 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,1 %i yoki 318,9 mlrd so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 357,8 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 881,8 %ni yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,1 %ni tashkil etdi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd so‘m

Respublika byudjeti-240,2 mlrd so‘m



Suv ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi-35,2 mlrd so‘m



Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi-0,0 mlrd so‘m



O‘z.Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar-322,7 mlrd so‘m



Korxona mablag‘lari-786,7 mlrd so‘m



Aholi mablag‘lari-881,8 mlrd so‘m



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-755,1 mlrd so‘m



Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari-103,2 mlrd so‘m



Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'ları hisobidan 103,2 mlrd soʻm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,6 %ini tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsish surʼati 27,4 %ni tashkil qildi), Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 322,7 mlrd soʻm, 8,2 % va 2,6 m. ga koʼpaydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 1 583,8 mlrd soʻm (40,1 % va 146,1 % punktga koʼpaydi), Respublika byudjeti 240,2 mlrd soʻm (6,1 % va 69,9 %. ga kamaydi), suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʼarmasi - 35,2 mlrd soʻm (0,8 % va 74,0 % punktga koʼpaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar oʼzlashtirildi.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar boʻyicha asosiy kapitalga investitsiyalar**



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Shahar va tumanlar

hajmi,  
mlrd so'm

o'sish sur'ati

viloyatdagi  
ulushi

Tuproqqa'l'a tumani

249,2  
mlrd so'm

193,2 %

6,3 %

Xonqa tumani

238,6  
mlrd so'm

65,5 %

6,0 %

Xiva tumani

435,3  
mlrd so'm

219,6 %

11,0 %

Shovot tumani

289,0  
mlrd so'm

147,8 %

7,3 %

Yangiariq tumani

271,5  
mlrd so'm

149,0 %

6,9 %


Yangibozor tumani

208,1  
mlrd so'm

80,9 %


5,3 %

### 2023- yil yanvar- iyun oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Xiva tumanida – 2,2 m. oshgan (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 435,3 mlrd so'm), Tuproqqa'l'a tumanida – 193,2 % (249,2 mlrd so'm), Yangiariq tumanida – 149,0 %. oshgan (271,5 mlrd so'm), Shovot tumanida – 147,8 % (289,0 mlrd so'm).

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga  
o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo'yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida – 25,2 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 994,5 mlrd so'm), Xiva tumanida 11,0 % (435,3 mlrd so'm), Qo'shko'pir tumanida 9,8 % (389,0 mlrd so'm).

**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar**



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2023-yilning yanvar-iyunida 2012,1 ming so'm yoki 97,9 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib, 6594,9 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,6 %ni tashkil etdi. Tuproqqa'l'a tumanida 4282,6 ming so'm (yoki 188,9 %) va Xiva tumanida 2856,1 ming so'm (yoki 216,2 %) darajada qayd etildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi ( %da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 50,6 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari – 43,2 %, boshqa xarajatlarning ulushi 6,2 %ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 487,2 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 12,3 %, ishlab chiqarish sanoati – 1799,9 mlrd so'm (45,5 %), qurilish – 53,7 mlrd so'm (yoki 1,4 %), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash – 103,4 mlrd so'm (yoki 2,6 %), ta'lim – 112,3 mlrd so'm (yoki 2,8 %) va boshqa faoliyat turlari – 290,7 mlrd so'm (yoki 7,4 %).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 1906,5 mlrd so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 166,4 mln AQSH dollari), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 180,1 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiyligi tarkibida xorijiy investitsiyalar 756,5 mlrd so'mni tashkil etdi, shuningdek, 1150,0 mlrd so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiyligi hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 755,1 mlrd so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 322,7 mlrd so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 827,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahrida – 19,0 %, Xiva tumanida jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 18,5 %ni va Shovot tumanida 9,9 %, darajada kuzatildi.





# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


## Xorijiy investitsiya va kreditlar

	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan %da</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1906,5</b>	<b>1150,0</b>	<b>100,0</b>	<b>162,0</b>

### *shahar va tumanlar:*

<b>Urganch sh.</b>	361,5	111,4	19,0	151,7
<b>Xiva sh.</b>	39,8	19,2	2,1	105,2
<b>Bog'ot</b>	4,0	4,0	0,2	10,2
<b>Gurlan</b>	31,9	31,9	1,7	118,0
<b>Qo'shko'pir</b>	177,4	177,4	9,3	146,7
<b>Urganch</b>	146,2	146,2	7,7	77,1
<b>Hazorasp</b>	17,5	17,5	0,9	25,4
<b>Tuproqqa'l'a</b>	160,2	160,2	8,4	193,9
<b>Xonqa</b>	112,8	112,8	5,9	77,1
<b>Xiva</b>	352,3	352,3	18,5	7,6 m.
<b>Shovot</b>	189,1	0,0	9,9	4,3 m.
<b>Yangiariq</b>	188,3	13,5	9,9	8,1 m.
<b>Yangibozor</b>	125,5	3,6	6,6	111,0

**Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (*mlrd so'm*)**



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 8,2 % yoki 322,7 mlrd so'mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 48,2 % yoki 1906,5 mlrd so'mni, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 755,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: G.Xaitbayeva  
Telefon: (62) 224-65-22**